



## KIMYO FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

**Bahodirova Shahzoda Mansurbekovna**

*Xorazm viloyati Urganch shahri 1-son Kasb-hunar maktabi*

*Bo'lim boshlig'i*

**Safayeva Laylo Toxirovna**

*Kimyo fani o'qituvchisi*

*Tel:93-864-40-86.*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada kimyo fanining o'qitishdagi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati darslarda qo'llash usullari haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarmoqlar, intervyu, blits so'rov, 3 X 4, muloqot.*

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Demak, u yoki bu fan o'qituvchisining mahoratini aniqlashda uning faoliyati davlat ta'lim standartlari talablariga va pedagogik shartlarga nechog'lik mos kelishi nazarda tutiladi.

“**TARMOQLAR**” metodi - o'quvchi-o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

“**3x4**” metodi - o'quvchi-o'quvchilarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

“**BLITS-O'YIN**” metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan fani asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

“**INTERVYU**” texnikasi - o'quvchi-o'quvchi savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

“**IYERARXIYA**” texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.



“O’QUVCHI” treningi - o’quvchi-o’quvchilar bilan yakka holda ishlash o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi to’siqni yo’q qilish, hamkorlikda ishlash yo’llarini o’rgatishga qaratilgan.

“O’QITUVCHI SHAXSI” treningi – o’qituvchining innovatsiya faoliyatini ochib beruvchi “O’qituvchi shaxsiga qo’yiladigan talablar” mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

“MULOQOT” texnikasi o’qituvchilarni auditoriya diqqatini o’ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko’rsatishga, uni tashkil etishni o’rgatishga qaratilgan.



Shunday qilib, muammoli ta’lim o’quvchi-o’quvchilarning bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o’zlashtirishga yordam beradi, o’zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olish, ta’lim muammolarini yecha olish ta’lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta’limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. U.N. Tashkenbayev “Xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarning Tabiiy fanlar bo’yicha savodxonligini baholash” Jurnal “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019

2. I.R.Asqarov, N.X.To’xtaboyev Kimyo darslik “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2017